

ANJUMAN | КОНФЕРЕНЦИЯ | CONFERENCES

# O'ZBEKISTONDA ILMIY TADQIQOTLAR: DAVRIY ANJUMANLAR

DAVRIYLIGI: 2018 | 2022



2022  
IYUN  
№41



CONFERENCES.UZ

Toshkent shahar, Amir  
Temur ko'chasi, pr.1, 2-uy.



+998 97 420 88 81



+998 94 404 00 00



[www.taqiqot.uz](http://www.taqiqot.uz)

[www.conferences.uz](http://www.conferences.uz)



**ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ  
ТАДҚИҚОТЛАР: ДАВРИЙ  
АНЖУМАНЛАР:  
25-ҚИСМ**

---

**НАЦИОНАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ  
УЗБЕКИСТАНА: СЕРИЯ  
КОНФЕРЕНЦИЙ:  
ЧАСТЬ-25**

---

**NATIONAL RESEARCHES OF  
UZBEKISTAN: CONFERENCES  
SERIES:  
PART-25**

**ТОШКЕНТ-2022**



УУК 001 (062)  
КБК 72я43

**“Ўзбекистонда илмий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” [Тошкент; 2022]**

“Ўзбекистонда илмий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” мавзусидаги республика 41-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 30 июнь 2022 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2022. - 16 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн даврий анжуманлар Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишиланган.

Ушбу Республика илмий анжуманлари таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илгор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳтил қилинган конференцияси.

**Масъул мухаррир:** Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

**1.Хуқуқий тадқиқотлар йўналиши**

Профессор в.б.,ю.ф.н. Юсувалиева Раҳима (Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

**2.Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар**

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна(Фаргона давлат университети)

**3.Тарих саҳифаларидағи изланишлар**

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

**4.Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни**

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган мухандислик-қурилиш институти)

**5.Давлат бошқаруви**

Доцент Шакирова Шохода Юсуповна (Ўзбекистон Республикаси Ёшлиар ишлари агентлиги хузуридаги ёшлар муаммоларини ўрганиш ва истиқболли кадрларни тайёрлаш институти)

**6.Журналистика**

Тошбоева Барнохон Одилжоновна(Андижон давлат университети)

**7.Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар**

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш худудий маркази)



**8.Адабиёт**

PhD Абдумажидова Дилдора Раҳматуллаевна (Тошкент Молия институти)

**9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни**

Phd Воҳидова Меҳри Ҳасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

**10.Педагогика ва психология соҳаларидағи инновациялар**

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят ҳалқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

**11.Жисмоний тарбия ва спорт**

Усмонова Дилфузахон Иброҳимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

**12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш**

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

**13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши**

Бобоҳонов Олтибой Раҳмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

**14.Тасвирий санъат ва дизайн**

Доцент Чариеv Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

**15.Мусиқа ва ҳаёт**

Доцент Чариеv Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

**16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар**

Доцент Нормирзаев Абдуқаюм Раҳимбердиевич (Наманганд мухандислик-курилиш институти)

**17.Физика-математика фанлари ютуқлари**

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманганд мухандислик-технология институти)

**18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар**

Т.Ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

**19.Фармацевтика**

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

**20.Ветеринария**

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

**21.Кимё фанлари ютуқлари**

Рахмонова Доно Қаҳхоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



**22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар**

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

**23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари**

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

**24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар**

Phd доцент Қаҳҳоров Ўқтам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

**25.География**

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

*Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг хаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулdir.*

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

**Контакт редакций научных журналов.** tadqiqot.uz  
ООО Tadqiqot, город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

**Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz**

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000

**ГЕОГРАФИЯ**

<b>1. Quryozova Intizor</b>	
GEOGRAFIYA DARSLARIDA AMALIY MASHG'ULOTLAR BILAN ISHLASH.....	7
<b>2. Abduraximov Shaxbozbek, Abduraximova Nozima</b>	
GEOGRAFIYA DARSLARIDA O'QUVCHILARNI TABIIY-ILMIY SAVODXONLIGINI OSHIRISH .....	9
<b>3. Ibrohimova Moxira Rustamovna</b>	
GEOGRAFIYA DARSLARIDA HOZIRGI DAVRNING GLOBAL MUAMMOLARINI O'QITISH USULLARI .....	11
<b>4. Расулова Нигора Абдумуродовна</b>	
ГЕОГРАФИЯ ТАЪЛИМИДА РАҶАМЛИ ТЕХНОЛОГИЯЛАР .....	14



## ГЕОГРАФИЯ

### GEOGRAFIYA DARSLARIDA AMALIY MASHG'ULOTLAR BILAN ISHLASH

**Quryozova Intizor,**  
Xorazm viloyati Bog'ot tumani  
12-maktab geografiya fani o'qituvchisi  
Telefon nomer: +998942394088

**Annotatsiya:** Maqolada geografiya darslarida amaliy mashg'ulotlardan foydalanish orqali o'quvchilarga o'tilayotgan mavzu haqida ko'proq bilim va tushunchalar hosil qilish haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** Havoning namligi va namlik koeffitsiyentini aniqlash, nisbiy namlik, mutloq namlik, namlik koeffitsiyenti, havodagi suv bug'i, daryo nishabligi, daryo zichligi, mutloq balandlik, yillik yog'in miqdori.

Maktab dargohlarida o'qitish jarayonida bosqichma bosqich oddiylikdan murakkablikka tomon o'quvchilarni zeriktirmasdan turli xil amaliy mashg'ulotlar bilan tushuntirsak fanga bo'lган qiziqish ortadi, o'quvchilarni dunyoqarashi, fikrashi, yer yuzasiga, tabiatga bo'lган qarashi rivojlanadi va antropogen ta'sirlar kamayadi, aholi orasida ekologik ma'daniyat rivojlanadi.

Geografiyadan mashq va masalalar yechish o'quvchilarda quyidagi ijobiy fazilatlarni tarbiyalashga ximat qiladi:

1. O'quvchilarda mantiqiy fikrlash qobiliyati rivojlanadi.
2. O'quvchilarda geografik obyekt, hodisa va jarayonlarning tashqi ko'rinishi bilan birga uning ichki tuzilishini tasavvur eta bilish qobiliyati rivojlanadi.
3. O'quvchilarda geografik obyekt, hodisa va jarayonlarni keltirib chiqaruvchi sabablarni aniqlashga qaratilgan bilimlar rivojlanadi.
4. O'quvchilarda muayyan geografik obyekt, hodisa va jarayonlar ko'lamenti aniqlashga doir hisoblash malakalari takomillashadi.
5. O'quvchilarda ilmiy dunyoqarash va mantiqiy tafakkurlay olish malakalari shakllanadi. Bu masalarni 5-sinf o'quvchilarida dars mavzusini tushuntirgandan so'ng, amaliy mashg'ulotlar bilan ishslash mumkin.

Havoning namligi va namlik koeffitsiyentini aniqlash:

Mutlaq namlik-1 metr kub havoda mavjud bo'lган va gramm hisobida o'lchanadigan suv bug'lari miqdori.

Nisbiy namlik-muayyan haroratli havoda mavjud bo'lган suv bug'i miqdorining shunday haroratli havoda to'yinishi uchun zarur bo'lган suv bug'i miqdoriga nisbati

Havoning nisbiy namligini aniqlash

$$R = e/E * 100\%$$

R - nisbiy namlik

e - havoda ayni vaqtida mavjud bo'lган suv bug'i miqdori

E-havoning to'yinishi uchun zarur bo'lган suv bug'i miqdori

**Turli haroratda havoning namga to'yinishi uchun zarur bo'lган suv bug'lari miqdori**

Havo o'zida turli miqdorda suv bug'larini tutib turishi mumkin.

Havoning qancha suv bug'ini tutib turishi havo haroratiga bog'liq. Agar havo harorati 0 °C bo'lsa, 1 m<sup>3</sup> havo o'zida 5 g, +10 °C bo'lsa, 9 g, +20 °C da 17 g va +30 °C bo'lsa, 30 g suv bug'ini tutib tura oladi. Demak, havo qanchalik sovuq bo'lsa, shuncha kam va qanchalik issiq bo'lsa, shuncha ko'p suv bug'ini ushlab tura oladi.

1 metr kub havoda +20 gradus haroratda 11 gramm suv bug'i mavjud bo'lsa, havoning nisbiy namligini aniqlang .

$$R = e/E * 100\% = 11 \text{ gr} / 17 \text{ gr} * 100\% = 64.7\%$$



Mustaqil yechish uchun:

- Havo harorati +10 gradus bo`lganda 1metr kub havo tarkibida 5gramm suv bug`i mavjud bo`lsa havoning nisbiy namligini aniqlang
- Havo harorati +30 gradus bo`lganda 1metr kub havo tarkibida 5gramm suv bug`i mavjud bo`lsa havoning nisbiy namligini aniqlang
- Harorat +20 gradusda nisbiy namlik 50 %. Mutlaq namlikni toping.
- Namlik koeffitsiyenti-ma`lum bir hududdagi havoning namlik bilan ta`minlanganlik darajasi.

**K=Yo/B**

K-namlik koeffitsienti,  
Yo-yillik yog`in miqdori,  
B-mumkin bo`lgan bug`lanish miqdori.

• Mustaqil yechish uchun masalalar:

1.Sirdaryo dengiz sathida 3850 metr balandlikdan boshlanib, 67 metr Mutlaq balandlikda Orol dengizga quyiladi. Agar daryoning umumiyligi 3019 km bo`lsa, daryoning nishabligini toping.

Yuqoridagi amaliy mashg`ulotlar, ayrim mavzular uchun xolos, deyarli har bir mavzuni amaliy mashg`ulotlar yordamida tushuntirib o`quvchilar bilimini mustahkamlash mumkin.

**Foydalanilgan manbalar:**

1. Internet ma`lumotlari.
2. Amaliy mashg`ulotlar. Sh.Z.Jumaxanov. A.M.Toshpo`latov.Namangan-2018



## GEOGRAFIYA DARSLARIDA O‘QUVCHILARNI TABIIY-ILMIY SAVODXONLIGINI OSHIRISH

**Abduraximov Shaxbozbek**

Namangan viloyati Norin tumani

21-maktab geografiya fani o‘qituvchisi

**Abduraximova Nozima**

Norin tumani 16-maktab geografiya fani o‘qituvchisi

Tel: +998 99 929 96 93

**ANNOTASIYA:** Ta’lim tizimini tubdan isloq qilish bo'yicha olib borilayotgan ishlar va bu boroda geografiya fanini o'qitishda o'quvchilarni tabiiy-ilmiy savodxonligini oshirish bo'yicha olib borilayotgan ishlar haqida

**TAYANCH SO'ZLAR:** ta'lim tizimi, geografiya, metodik tavsiya, tabiiy-ilmiy savodxonlik, ta'lim sifati

So'nggi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida ulkan iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlariga erishilayotganligi barcha sohalarda malakali kadrlar va yetuk mutaxassislarga bo'lgan talabni yanada oshirmoqda. Bu o'z-o'zidan o'quvchilarimizning darslarga qiziqish xususiyatini oshirish va o'qituvchilarning har tomonlama ta'lim tarbiyaga e'tiborini kuchaytirishni talab etadi. Yuqoridaqgi talablarning ta'lim tizimi uchun juda muhim ekanligi, aksariyat xorijiy davlatlardagi kabi ta'lim va fan sohalari rivojlanishini baholash va monitoring qilish orqali ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan ilg'or tajribalarni sohaga jalb qilish kerakligini anglatadi. Mamlakatimiz innovatsion taraqqiyot yo'lida shiddat bilan rivojlanib borayotgan bir davrda kelajagimiz davomchilari bo'lmish yoshlarni ijodiy g'oyalari va ijodkorligini har tomonlama qo'llabquvvatlash, ularning bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish hamda ilg'or xorijiy tajribalar, xalqaro mezon va talablar asosida baholash tizimini takomillashtirish, shu yo'lida xalqaro tajribalarni o'rganish, mavjud tizimni har tomonlama qiyosiy tahlil qilish, tegishli yo'nalishdagи xalqaro va xorijiy tashkilotlar, agentliklar, ilmiy -tadqiqot muassasalari bilan yaqindan hamkorlik qilish muhim ahamiyatga egadir. Shu maqsadda, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" 2018-yil 8-dekabrdagi 997-sonli qarori bilan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiysi huzurida "Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish Milliy markazi" tashkil etildi. Shu bilan birga, ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarda ishtiroy etish vazifalari belgilandi. Ushbu loyihibar o'quvchi-yoshlarning ijodiy va tanqidiy fikrlesh ko'nikmalari, egallagan bilimlarini hayotda qo'llay olish layoqatiga turli xil topshiriqlar orqali baho berish va keyinchalik bu ko'nikmalar rivojlanishiga turtki berishga xizmat qiladi. Hozirgi kunga qadar Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiysi va Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti hamda Ta'lim sohasidagi yutuqlarni baholash xalqaro assotsiatsiyasi o'rtasida imzolangan kelishuvlarga muvofiq 2021-yilda PISA va PIRLS xalqaro dasturlarida ishtiroy etish rejalashtirilgan. Mazkur tadqiqotlar doirasida O'zbekiston Respublikasi o'quvchi-yoshlarining savodxonlik darajalari ilk bor sinab ko'rilar ekan, bunga o'ta mas'uliyat bilan tayyorgarlik ko'rish talab etiladi.

Shunday ekan, biz geograflar zimmasida ham ulkan vazifa, o'quvchilarning tabiiy-ilmiy savodxonligini baholashga qaratilgan topshiriqlardan dars jarayonida unumli foydalanishimiz darkor. Tabiiy-ilmiy savodxonlik – shaxsnинг tabiiy fanlar rivoji va ularning yutuqlaridan foydalanish bilan bog'liq masalalarda faol fuqarolik pozitsiyasini egallash qobiliyati va uning tabiiy-ilmiy g'oyalalarini o'rganishga tayyorligini anglatadi. Tabiiy-ilmiy savodxonlikka ega bo'lgan shaxs tabiiy fanlar va texnologiyalarga oid muammolarni ilmiy dalillarga asoslangan holda muhokama qilishda ishtiroy eta oladi.

Tabiiy fanlar bo'yicha savodxon bo'lgan shaxsda quyidagi kompetensiyalar shakllangan bo'ladi:

1. Hodisalarni ilmiy jihatdan tushuntirish
2. Ilmiy tadqiqotlarni loyihalash va baholash
3. Ma'lumotlar va dalillarni ilmiy talqin qilish



Geografiya darslarida an'anaviy yondashuv bilan tabiiy-ilmiy savodxonlik o'rtasidagi farqni quyidagi misollar yordamida ko'rishimiz mumkin: An'anaviy yondashuv- Eng sho'r dengiz qaysi? O'zbekistonda selluloza-qog'oz va yog'ochni qayta ishlash sanoati yalpi sanoat mahsuloti hajmida necha % ni tashkil etadi? Tabiiy -ilmiy savodxonlik-Qizil dengiz nima uchun sho'r? O'zbekistonda o'rmonlarning kamligiga sabab nima?

An'anaviy yondashuvda o'quvchi bir so'z bilan Qizil dengiz deb javob beradi, tabiiy-ilmiy savodxonlikda esa o'quvchi Qizil dengizning nima uchun sho'r ekanligi, O'zbekistonda o'rmonlarning nima uchun kamliqi haqida o'ylaydi, izlanadi va mustaqil fikrlaydi, ilmiy dalillarga asoslangan holda muhokama qilishda ishtirok eta oladi. Xalqaro baholash dasturlari tadqiqotlariga tayyorgarlik ko'rish tabiiy fanlarni (fizika, kimyo, biologiya, geografiya) o'qitish jarayonida fanlararo integratsiyani kuchaytirish, fanni turli sohalarga va hayotiy jarayonlarga bog'lab o'qitish talab etiladi. An'anaviy yondashuv: Tovush to'lqinlarining tezligi, davri va uzunligini bog'lovchi formulani yozing. Tabiiy-ilmiy savodxonlik: Minglab kilometr uzoqligidagi yer qimirlashi haqida qanday va qancha vaqtida bilishimiz mumkin? Bu misol fizika va geografiya fanlari o'rtasidagi fanlararo bog'lanishni kuchaytirishga yordam beradi.

Geografiya darslarida o'quvchilarining tabiiy-ilmiy savodxonligini oshirishda quyidagi masalalarga ko'proq e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir:

- o'qitishning faol va interfaol metodlaridan foydalanish;
- o'quvchilarining matnni tushunish,u bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish;
- turli ko'rinishdagi savol-topshiriqlar (matn,grafik,rasm....)ni bajarish;
- muammoli,qisman-izlanishli,tadqiqot xarakteridagi topshiriqlarni bajarish ;
- o'qituvchi va o'quvchilarining kompyuter texnikasidan foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirishlari;
- fanlararo bog'lanishlarni amalga oshirishga e'tibor qaratishlari.

Xulosa o'rnida shuni aytish lozimki: ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarning ikki muhim ko'rsatkichi –sifat va samaradorlik, aynan o'qituvchining salohiyati va kasbiy mahoratiga uзви bog'liq. O'qituvchi tajriba va malakasining uyg'unligi muvaffaqiyatlar garovi ekanligi sir emas. O'qituvchining ijodkor va tashabbuskor bo'lishi lozimligini buyuk nemis pedagogi A.F.Distervergning fikri ham tasdiqlaydi: “Noqobil o'qituvchi haqiqatni shunchaki aytadi -qo'yadi, yaxshisi esa uni topishga o'rgatadi”.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida” PF-5712 –sonli Farmoni
2. “Xalqaro tadqiqotlarda o'quvchilarining tabiiy fanlar bo'yicha savodxonligini baholash. “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririysi. Toshkent-2019



## GEOGRAFIYA DARSLARIDA HOZIRGI DAVRNING GLOBAL MUAMMOLARINI O'QITISH USULLARI

Ibrohimova Moxira Rustamovna

Yangiariq tumani 6-sон мактаб о'қитувчisi

Telefon: +998 (93) 741 59 83

moxira.rustamovna\_scool6@inbox.uz

**Annotatsiya:** Ushbu maqola geografiya darslarida hozirgi davrning asosiy muammolari va ularning yechimi o'qitish haqida.

**Kalit so'zlar:** Atrof-muhit, tabiiy ofatlar, demografik muammo, ekologik muammo, urush va tinchlik.

Insoniyat jamiyatining taraqqiyoti hechqachon va hechqayerda oson, beto'siq kechmagan. hardoim va hamma davrlarda jamiyat oldida muayyan muammolar ko'ndalang bo'lib turgan. Bular, bir tomonidan, tabiat ofatlarining natijasi o'larоq namoyon bo'ladi gan yer silkinishlari, suv toshqinlari, qurg'oqchilik, quyosh radiatsiyasi o'zgarishi bilan bog'liq turli epidemik kasalliklar va hokozolar bo'lsa, ikkinchi tomondan, insoniyat faoliyati natijasida yuzaga kelgan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-madaniy hayotga oid bo'lgan antropogen muammolardir. Jahon miqyosida jarayonlari tahlili shunu ko'rsatadiki, hozirgi vaqtida, insoniyat uchun o'tkir, dolzarz bo'lib turgan global muammolar quyidagilardan iborat:

- a) yer yuzida tinchlikni ta'minlash va yalpi qirg'in urushlarining oldini olish (urush va tinchlik muammosi);
- b) atrof-muhitni samarali muhohaza qilish (ekologik muammolar);
- d) aholi sonining orta borishi bilan ishlab chiqarish rivojlanishi mutanosibligiga erishish(demografik muammo)
- e) yer yuzi aholisini zarur oziq -ovqat va energiya manbalari bilan ishonchli ta'minlash;
- f) ochlik-qashshoqlik va qoloqliknin tugatish uchun yuksak rivojlangan va ularda keyinda qolgan mamlakatlar o'rta sidagi keskin farqni bartaraf etish;
- g) xavfli kasallikkarni tugatish;
- h) inson ma'naviy-axloqiy muhiti sofligini ta'minlash;

Bu muammolarning har biri u yoki bu darajada ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy huquqiy nuqtayi nazardan ilmiy tahlil etilgan. Kelib chiqishi, chuqurlashib borishi, ko'lami va hal etilishining murakkabligi jihatlariga ko'ra, ularni uch guruhga ajratish mumkin.:

Birinchisi, mavjud ijtimoiy tuzumning tabiatni, turli mintaqqa davlatlarning xilma-xil manfaatlari taqozo etilgan muammolar.

Ikkinchi guruhi,-inson kelib chiqadigan muammolari.

Uchinchisi, "Jamiyat-tabiat" tizimi doirasidagi munosabatlardan kelib chiqadigan muammolar

Global muammolarning turlari o'zaro qanchalik farqlansada, bu sohalardagi umumiylig dastavval butun insoniyatning hayoti, shart-sharoitlari, imkoniyatlari va istiqboli masalalaridir.

Ikkinchi tomondan ular u yoki bu darajada hozirgi davrning bosh omili- fan-texnika inqilabi bilan aloqadordir, ya'ni uning oqibatidir. bizning davrimizda fanning rivojlanish sur'atlari g'oyat kattadir.

Fanda erishilgan kashfiyotlar tezda yangi texnika vositalari yararishni ta'minlasa, o'z navbatida texnika rivojlanishi ham fanda yangi o'zgarishlar sodir etishga jiddiy turki bermoqda. Bularning natijasi o'larоq, erishilgan kashfiyotlar muayyan maqsadlarga xizmat qilmoqda. Bu esa global muammolarning yanada o'tkir , dolzarb bo'lib turishiga olib kelmoqda. Yuqoridagilardan ko'rindan, yerdagi hayotni saqlab qolishning asosiy sharti-yalpi qirg'in urushlarning oldini olish hamda sayyoramizning bir qancha mintaqalari xalqlari qoloqligini tugatib, insoniyat jamiyatni mutanosib rivojlanishiga erishish va ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish insoniyat kuch g'ayratlarini birlashtirish lozim boladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:**

1. "Jahon iqtisodiy-ijtimoiy geografiyasi 9-sinf darslik,, Jahon mamlakatlari geografiyasi,, ilmiy metodik qo'llanma.

**GEOGRAFIYA FANIDA AMALIY MASHG'ULOTLARNING ROLI**

Ishpulatova Matluba Xoshimovna



Navoiy viloyati Uchquduq tumani

10- sonli mактабning geografiya fani o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada Geografiya ta'limida amaliy mashg'ulotlarning o'rni va ahamiyati xaqida so'z boradi. Geografiya fanining amaliy ahamiyati va nufuzini oshirish, o'quvchilarni fanga bo'lgan qiziqishini oshirishda amaliy mashg'ulotlarning o'rni to'g'risida mulohaza yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** amaliy mashg'ulot, geografiya, qobiq, o'quvchi, tabiat, topshiriqlar, metod, sinfdan tashqari mashg'ulotlar, fan, fikrlash.

Geografiya fan sohasi sifatida tarkib topgandan buyon, ayniqsa, hozirgi davrda, unung uchun tabiat va o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik masalalari katta ahamiyat kasb etdi. Geografiya fanlar turkumiga kiruvchi barcha fanlar o'zaro bog'liq bo'lib, umumiy ilmiy va amaliy maqsadlarni ko'zlagan xolda rivojlanmoqda. Turli geografik fanlar uyg'unligida Yer yuzi alohida xududlarda yaxlit tasavvur xolida shakllanadi, mamlakat va xududlar rivojlanishining muammo va istiqbollari aniqlanadi. Tabiatni muxofaza qilish va undan oqilona foydalanish, iqtisodiyotni rivojlantirish aholi turmush darajasini yuksaltirishga xizmat qiluvchi amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi. Anashunday yuksak natijalarga erishish uchun geografiya ta'limida muntazam olib boriladigan amaliy mashg'ulotlarning o'rni alohida ahamiyatga ega.

Amaliy mashg'ulotlar o'quvchilarga darslar davomida oлган bilim va tushunchalarini ko'nikmaga aylanib, chuqr idrok va tasavvur qilishga yordam beradi. O'quvchi geografik bilimlarni tasavvur eta olishi fanni chuqr o'rganib borayotganidan dalolat beradi. Olingan bilimlarni mustahkamlash esa amaliy mashg'ulotlarning asosini tashkil etadi.

Amaliy mashg'ulotlar qayerda o'tkazilishiga qarab 3 turga bo'linadi:

1.Dars jarayonida o'tkaziladigan mashg'ulotlar. O'qituvchi nazorati va ko'magida o'tkaziladi. Mashg'ulotlar vaqt chegaralangan bo'lib, dars mavzularidan kelib chiqib tanlanadi. Ular quyidagi turlarga bo'linadi: Yozuvsiz xaritalar va geografik atlaslar bilan ishlash, diagrammalar, darslikda berilgan matn va rasmlar bilan ishlash, geografik diktantlar yozish, matematik hisoblashga asoslangan mavzuviy masalalalar yechish kabi bo'lishi mumkin.

2.Sinfdan tashqari amaliy mashg'ulotlar: Dala sharoitida, mакtab hovlisida yoki sinf xonasida tashkillash mumkin. Bunday mashg'ulotlar o'quvchilarda juda katta qiziqish xosil qiladi, chunki jarayonni o'quvchilar o'zları bevosita qatnashchisi bo'ladilar. Darslarda olingan nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llaydilar. Bu mashg'ulotlar ko'p vaqt talab etgani uchun xam sinfdan tashqari o'tkaziladi. Masalan: Azimut bo'y lab yurish, Joy planini tuzish, Geografik maydonchada mavjud asboblardan foydalanishni o'rganish, turli maketlar yasash (Maktab xududi, Yer shari, relyef shakllari) kabi bo'lishi mumkin.

3. O'quvchi mustaqil uyda bajaradigan mashg'ulotlar. O'qituvchi dars va mashg'ulotlar davomida bergen bilimlari yuzasidan tuzilgan mustaqil bajarishga asoslangan, takrorlash xarakteriga ega bo'lgan, o'quvchini kreativlik qobiliyatini ochib berishga undovchi bo'lishi kerak. Chunki bu topshiriqlarni o'quvchi mustaqil fikrlab bajaradi va o'zining individual xususiyatlarini ko'rsatadi.

O'quvchilar bajaradigan amaliy mashg'ulotlarga quyidagi metodik talablar qo'yiladi:

1.Amaliy topshiriqlar o'quvchilarning bilimi va qobiliyatiga mos, ularning psixofiziologik imkoniyatlarini xisobga oлган, ayni vaqtida ularning fikrlash qobiliyatini va ijodiy fiklashini ijobjiy tashabbusini rivojlantiradigan bo'lishi kerak;

2.O'quvchilarning amaliy topshiriqlari ilgari egallagan bilim, ko'nikma va malakalardan foydalanishni taqozo etadigan hamda ularni yanada rivojlantiradigan bo'lishi kerak.

3.Amaliy topshiriqlarning turi va mazmuni o'quvchilarning yosh xususiyatlari, ularning tayyorgarlik darajasiga va individual xususiyatlariga mos bo'lishi kerak.

4.Amaliy mashg'ulotlarning mazmunan xilma-xil va qiziqarli bo'lishiga e'tibor berish kerak, ularning natijasi o'quvchiga yangilik bo'lishi shart.

5.Amaliy topshiriqlar quyi sinflardan yuqori sinflarga tomon asta-sekin murakkablashib borishi lozim;

6. Xar bir amaliy topshiriqning natijasi o'z vaqtida taxlil qilinishi, muxokama qilib baholanishi, amaliy topshiriq natijalari esa ta'lim jarayonida qo'llanishi maqsadga muvofiqdır.

Amaliy topshiriqlarning samarası o'quvchilarning bilimi tayyorgarligiga, o'qituvchini ijobjiy faoliyati mahorati, tajribasi va yondosh fanlarni yaxshi bilishi va kreativ fikrlashiga bog'liq. Amaliy mashg'ulotlarni tashkillanganda quyidagi dars metodlaridan foydalanish yaxshi natijalar



beradi. Geografik xaritalar bilan ishlash, kichik guruxlarda ishlash, klaster, jadvallar ustida ishlash, og‘zaki va yozma debatlar, assisment, geografik diktant, T sxemasi, BBB organayzeri, baliq skeleti kabi metodlardan foydalanish mumkin. Mashg‘ulot metodlari mavzuning moxiyatidan ilmiy tushunchalarning murakkab yoki oson ekanligidan, o‘quvchi yoshidan, sinfdagi o‘quvchilar sonidan kelib chiqib tanlaydi.

O‘qituvchi amaliy mashg‘ulotllar davomida turli qiziqarli geografik o‘yinlarni tashkillash mashg‘ulotni yanada samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Mashg‘ulotlar davomida geografiya fani jamiyat, axolining turmush tarzi iqtisodiyotni rivojlanishi, inson va tabiatni bir-biriga bog‘liqligini o‘quvchi tushunib boradi.

Xulosa qilib aytganda, geografiya ta‘limida amaliy mashg‘ulotlarning ahamiyati kattadir. Ular geografik bilimlarni chuqur o‘rganishga, o‘quvchilar qiziqishi va faolligini oshirish bilan birgalikda hayotiy va kasbiy ko‘nikmalarni xam rivojlantirishga xizmat qiladi. Bugungi kunda geografiya fanini rivojlantirish , jamiyatdagi nufuzini oshirish, amaliy ahamiyatini ko‘rsatib berish muhim xisoblanadi. Bu vazifani bajarishda amaliy mashg‘ulotlardan o‘rinli foydalanish samaradorligi yuqori bo‘ladi.

### Foydalilanigan adabiyotlar

1. M.T.Mirakmalov. M.M.Avezov. E.Y. Nazaraliyeva.||Tabiiy geografiyadan amaliy mashg‘ulotlar|- T. Fan va texnologiya ,2015.
2. P.Musayev, R. Qurbonniyozov. Geografik o‘yinllar. T. O‘qituvchi, 1990.
3. R.B.Qodirov, X Ro‘ziyeva. Geografiya darslarida amaliy mashg‘ulotlarni baja-rish bo‘yicha ayrim tavsiyalar.T. 2012.



## ГЕОГРАФИЯ ТАЪЛИМИДА РАҶАМЛИ ТЕХНОЛОГИЯЛАР

Расурова Нигора Абдумуродовна,

Навоий вилоят Хатирчи тумани 4-умутъалим мактаб  
география ва иқтисодий билим асослари фани ўқитувчиси

**Аннотация.** Уибу мақолада таълим тизимида раҷамли ахборотларни яратиш ва аудиовизуал технологияларнинг география таълимида фойдаланиши аҳамияти, электрон ресурсларни яратиш ва уларнинг таълим сифатини оширишдаги ўрни ҳақида фикрлар баён этилган.

**Таянч сўз:** раҷамли ахборотлар, аудиовизуал технология, аудиовизуал воситалар, ахборот ресурслар, 3D- дастурлар.

Мамлакатимизда таълим сифатини оширишга замонавий талаблар асосида ўқув дастурларини, ўқув-методик адабиётлар мажмуаларини янгилаш, ўқув жараёнига замонавий таълим технологияларини жорий этишга алоҳида эътибор қаратилмоқда. Президентимиз Шавкат Мирзиёев илм-фанни янада равнақ топтириш, ёшлигаримизни чуқур билим, юксак маънавият ва маданият эгаси этиб тарбиялаш, рақобатбардош иқтисодиётни шакллантириш борасида бошланган ишларни жадал давом этишига ярдечи мөрбие мурасимларни таълим тизимида раҷамли ахборотларни яратиш ва улардан самарали фойдаланиш технологияларини такомиллаштириш ҳамда бу технологияларни амалда татбиқ қилиш муҳим аҳамият касб этади.

Раҷамли ахборотлар яратиш ва ундан фойдаланиш технологияларидан бири— аудиовизуал технологиялар ҳисобланади. Ўқув жараёнига кенг кириб келаётган ўқитишининг аудиовизуал тизими (лотинчадан audire - эшитиш ва visual - кўриш) кўргазмали ва эшитиладиган ахборотларни тақдим қилишга мўлжалланган маҳсус техник воситаларни ўз ичига олади. Аудиовизуал воситалар— аудио, видео, электрон ўқув қўлланмалар, ўқув видеоёзувлар, электрон ресурслар банкини яратиш ва улардан самарали фойдаланиш тамойиллариdir. [1]

Бугунги кунда таълим самарадорлигини оширишда турли усуллардан фойдаланилмоқда. Мақсадга эришиш ҳамда ахборотларни қабул қилишда аудиовизуал воситалари имкониятларини кенгайтириш муҳим аҳамият касб этади. Аудиовизуал воситалар ва технологияларни машғулотларда асоссиз, ихтиёрий равишда қўллаш салбий оқибатларга ҳам олиб келиши мумкин. Шунинг учун кўргазмали воситалардан фойдаланишда бир қатор шартларга риоя қилиш мақсадга мувофиқ бўлади:

- қўлланилаётган кўргазмали восита таълим оловчининг ёши, психофизик хусусиятларига мос келиши;
- кўргазмали восита меъёрда ишлатилиши ва уни кетма-кетликда ҳамда таълим жараёнининг фақатгина лозим бўлган жойида кўрсатиш;
- иллюстрацияларни кўрсатишда асосийлари ва муҳимларини аниқ ажратиб олиш;
- намойиш қилинаётган кўргазмалар материаллар мазмуни билан мос тушиши;
- кўргазмали қўлланмадан ёки намойиш этилаётган курилмадан исталган ахборотни топиш ва таҳлил қилишга таълим оловчиларнинг ўзларини жалб этиш лозим.

[2]

Олий таълимнинг давлат таълим стандартида белгиланган умумий талабларида ўқув жараёнини фаол ва интерфаол шаклларини ташкил этиш, талабаларнинг касбий кўнинмаларини ривожлантириш, мустақил таълим олиш билан биргаликда хорижий илм-фан таълим технологияларини кенг қўллашни назарда тутади. Замонавий педагогик ва ахборот технологияларига асосланган таълим тизими фақатгина педагог фоаллигига асосланган анъанавий таълимдан фарқли равишда, таълим сифатини оширибигина қолмай, таълим оловчининг фоаллигини кучайтириб, унинг ижодий қирраларининг очилишига катта ёрдам берадиган восита сифатида намоён бўлади. Шунинг учун география таълимида аудиовизуал воситалардан фойдаланиш мақсадга мувофиқ ҳисобланади. Талабалар умумий табиий география фанини ўзлаштириш жараёнида фаннинг тадқиқот обьекти, предмети, тадқиқот усуслари, Коинот, Куёш системаси, Ер ва унинг Куёш системасидаги тутган



ўрни, географик қобиқ ва унинг тузилиши, географик мұхит ва инсон муносабатларининг географик асосларига оид назарий қарашлар ҳақида тасаввурға эга бўлишлари лозим. Аудиовизуал воситалар эса педагог етказмоқчи бўлган тасаввурни таълим олувчидаги мавжуд маълумотлар билан уйғун ҳолда унда шакллантириш имконини беради. Аудиовизуал тақдим қилинган материал педагог томонидан сўзлар орқали берилган материалга нисбатан тўлиқроқ қабул килинади. Бу ерда телетасвиirlарни қабул килишнинг психологик ўзига хослиги мұхим аҳамият касб этади. Ихтиёрий жараён ва ҳодисаларни чукур ўрганишда уларни компьютер ва аудиовизуал аппаратлар асосидаги қурилмалар ва технологиялар мажмуасидан иборат замонавий аудиовизуал воситалар ёрдамида моделлаштириш имкони юзага келди. Агар тасвиirlар моделлаштиришнинг 3D-дизайнер дастурлари ёрдамида тайёрланган бўлса самарадорлик сезиларли даражада юқори босқичга кўтарилади. Бундай тасвиirlарни география фанларини ўқитишда қўллаш мавзуларга оид маълумотлар моҳияти тўлиқ очиб бериш имкониятини беради.

Хулоса қилиб айтганда, таълим тизимида рақамли ахборотларни яратиш ва улардан самарали фойдаланиш таълим олувчиларнинг сифатли ахборотларга бўлган эҳтиёжини қондириш билан бирга уларнинг янги маълумотларни ўзлаштиришига ижобий таъсирини кўрсатади ҳамда таълим самарадорлигини янада ошишига эришиш мумкин.

### **АДАБИЁТЛАР:**

1. Новые аудиовизуальные технологии: Учебное пособие. / Отв. ред. К.Э.Разлогов. – М.: «Едиториал», 2005.
2. Мухаммадиев А.Ш. Таълим тизимининг ахборот таъминотини шакллантиришда аудивизуал технологиялар // Замонавий таълим №1. 2015. –Б. 37-38.

# **ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ ТАДКИКОТЛАР: ДАВРИЙ АНЖУМАНЛАР: 25-ҚИСМ**

**Масъул мухаррир:** Файзиев Шохруд Фармонович  
**Мусаҳҳих:** Файзиев Фарруҳ Фармонович  
**Саҳифаловчи:** Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 30.06.2022

**Контакт редакций научных журналов.** tadqiqot.uz  
ООО Tadqiqot, город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

**Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz**  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000